

## Omon Matjon ijodida arxaizmlarning qo'llanilishi

**Ilhombayeva Mahliyo**

**UrDU O'zbek filologiyasi fakulteti:  
o'zbek tili ta'lif yo'nalishi 223-guruh talabasi  
[ilhombayevamahliyo@gmail.com](mailto:ilhombayevamahliyo@gmail.com)**

**Kalit so'zlar:** lingvopoetika, eskirgan so'zlar, arxaizmlar, istorizmlar, she`riyat tili.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Omon Matjon she'rlarida qo'llanuvchi eskirgan so'zlardan arxaizmga xos bo'lgan so'z hamda birikmalar o'rganilgan. Arxaizmlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritilib, davr vogeliklari yoritib berilgan.

**Ключевые слова:** лингвопоэтика, устаревшие слова, архаизмы, историзмы, поэтический язык.

**Аннотация:** В данной статье изучаются архаичные слова и сочетания устаревших слов, использованные в стихотворениях Амона Матджона. Обсуждаются специфические характеристики архаизмов и освещаются реалии того времени.

**Key words:** linguopoetics, obsolete words, archaisms, historicisms, poetic language.

**Abstract:** In this article, archaic words and combinations of obsolete words used in Amon Matjon's poems are studied. The specific characteristics of archaisms are discussed and the realities of the period are highlighted.

Biror matn tilshunoslik fani nuqtai nazaridan tekshirilar ekan, biror adabiy til kategoriyalari – leksik, fonetik, morfologik va sintaktik birliklardan qaydarajada foydalanganliklari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shuning uchun ushu maqolada Omon Matjon she'riyati tilining leksik birliklari ichida o'ziga xos o'rinn egallovchi arxaizmlar haqida so'z yuritamiz.

**Arxaizm** yunoncha so'z bo'lib, archaios – qadimgi demakdir. Zamon o'tishi, sharoit o'zgarishi bilan ba`zi narsalar yo'qoladi. Va shu bilan bir qatorda ularni ifodalaydigan so'zlar ham iste` moldan chiqib qoladi. Shuning natijasid ba`zi so'zlar eskiradi. Ayrim vaqtlar narsalar muomalada bo'lgan holda, ular yangi nom oladi.



Bunday qo‘llanmay qolgan so‘zlar ham eskirgan hisoblanadi. Tilda so‘zlarining eskirib qolishi shunga ko‘ra ikki xil: arxaizm hamda istorizm shaklida bo‘ladi.

**Arxaizmlar** – bunda so‘zlar orqali ifodalanadigan predmetlar mavjud bo‘ladi, biroq u predmetlar avvalgi nomlari bilan emas, balki yangi so‘zlar, ya`ni ekvivalentlari bilan ifodalanadi.<sup>1</sup>

Bilamizki har qanday adib asarning leksik qatlamini bayon etishda, qalamga olinayotgan davrni ham inobatga oladi. Ya`ni tarixiy mavzularga bag‘ishlangan asarlarda yangi paydo bo‘lgan so‘zlar(neologizmlar)ni qo‘llab bo‘lmagani kabi zamonaviy mavzudagi asarlarda ham eskirgan so‘zlarni qo‘llash uslubiy jihatdan xatolik sanaladi. Masalan, Omon Matjonning Ogohiy g‘azaliga javoban yozilgan “Muloqot”ida qo‘llangan so‘zlar davr nuqtai nazaridan to‘g‘ri tanlangan.

“Ey pir, dedim, yodlar bugun ***ash’orlaringni*** Xorazm...”

“Qo‘yg‘il, dedi, faxriyangni, dardimi topgil chorasin,

Yon, oshiq o‘l, hech bosmasin davron changi ko‘z qorasin,

Qilg‘il tamoshzo qomati zebosi birlan orazin,

Gar ko‘rmasang gul bo‘lganin payvand shamshod ustina!”<sup>2</sup>

Misralardagi ash`or so‘ziga e`tibor qaratsak, *ash’or* arabcha so‘z bo‘lib *she`r* so‘zining ko‘plik shakli hisoblanadi. Agarda shu misrada ash`or so‘zi o‘rniga *she`r* so‘zini qo‘llaganda uslubiy jihatdan g‘alizlik kelib chiqqan bo‘lar edi. Chunki bilamizki Ogohiyning yashagan davri bilan *she`r* so‘zining qo‘llanilish vaqtida ma`lum chegara bor.

Davr ruhini berish uchun badiiy asarlarda arxaizmlardan foydalilanadi. Navbatdagi “Miriyya o‘xshatma” nomli qo‘shig‘ida ham shunday so‘zdan mohirona foydalangan:

Ey, husnda birinchim,

Ey tishlari dur-*injum*,

Yolg‘iz sening o‘zingsan

Bu dunyoda ilinjim,

Sen unda dog‘ bo‘lding,

Men munda dog‘ qoldim.<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – Т.: 1969.

<sup>2</sup> O. Matjon. Turkiy adabiyot durdonalar. O‘zbekiston. – Т.: 2022.

<sup>3</sup> O. Matjon. Turkiy adabiyot durdonalar. O‘zbekiston. – Т.: 2022.

She`rning ikkinchi misrasidagi *inju* so‘ziga e`tibor qaratadigan bo‘lsak, inju izohli lug‘atlarda marvarid<sup>4</sup> deb beriladi. Bu she`rda esa ushbu so‘z inju so‘zi bilan qo‘llanib emotsionallikni yanada oshirgan.

Yozuvchi takrordan qochish, ta`sirchanlikni oshirish, ma`no bo‘yoqdorligini ta`minlash maqsadida arxaizmning hozirgi davrdagi muqobili bilan birga qo‘llaydi. Bunday ko‘rinishni Omon Matjonning Ogohiyning g‘azaliga qilgan “Muloqot”idan olingan parchada ko‘rishimiz mumkin:

“Obod **zamon**, tenglik, dedim, turmush go‘zal, qushdek ko‘ngil...”

“O‘g‘lon, dedi, bu larzakor **ochunga** keng nazzora qil,

Olam bilan bo‘y o‘lchashib ko‘rmay havo ettingmi, bil,

Xoki taning barbod o‘lur oxir jahonda necha yil,

Sayr et Sulaymondek agar taxting qurib bod ustina!”<sup>5</sup>

She`rda qo‘llangan *ochun* so‘zi arxaizm bo‘lib, hozirgi kunda bu so‘z tamoman iste`moldan chiqqan va uni o‘rnida dunyo, jahon so‘zlari qo‘llanadi. Vaholanki, undan oldingi baytda zamon so‘zi qo‘llangani uchun yana takror qo‘llamaslik hamda badiiy bo‘yoqdorlikni oshirish uchun ochun so‘zini qo‘llaydi.

Arxaiklashish hodisasi tilning grammatik birliklarida, xuxusan, affiksal morfemalarda va shu morfemalar ishtirokida shakllangan grammatik formalarda ham uchraydi. Masalan, fe`l tarkibida qo‘llanuvchi birliklar arxaik shakli bilan qo‘llanib matnda ta`kid, kuchaytirish kabi ma`nolarni ham ifodalashi mumkin. So‘zimizning isbotini quyidagi misralardan ham bilishimiz mumkin:<sup>6</sup>

“Ming yor demak birlan, dedim, jomi visol bir **to‘lmog‘oy**,

Haqdin karam yo‘q, u bizim orzulara **qotilmog‘oy!**”

Lutfimga ul zot aytdi: “Qo‘y, dardim sanga esh **o‘lmog‘oy**,

Boshimga yoqqan g‘am toshin mingdin biricha **bo‘lmog‘oy**

Gardun agar ming besutun yog‘dirsa Farhod ustina!”<sup>7</sup>

Leksik arxaizmlarning yuzaga kelishida sinonim so‘zlar orasidagi uslubiy munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Birining faollashuvi ikkinchisining passivlashuviga, arxaiklashuviga olib keladi. Istorizmlarda esa bunday bo‘lmaydi.

<sup>4</sup> Savodxon Izohli lug‘ati. [Savodxon@gmail.com](mailto:Savodxon@gmail.com). 2014.

<sup>5</sup> O. Matjon. Maqsudam. Adabiyot. – T.: 2021.

<sup>6</sup> H. Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Talqin. – T.: 2005.

<sup>7</sup> O. Matjon. Maqsudam. Adabiyot. – T.: 2021.

Voqelikning yo‘qolishi shu voqelik nomi bo‘lgan so‘z (leksema) ning lug‘atdan butunlay tushib qolishiga sabab bo‘ladi.<sup>8</sup>

Ayrim arxaizmlar zamonaviy ma`nodoshiga qaraganda ma`noni kuchliroq ifodalash xususiyatiga ega bo‘ladi. Masalan, *yo‘qsil – kambag‘al* arxaik va zamonaviy so‘zlar juftligiga e`tibor beradigan bo‘lsak, “hech narsaga ega emaslik” ma`nosi yo‘qsil leksemasida kambag‘al leksemasiga qaraganda ancha ortiq, chunki mazkur so‘zlar tarkibi tarixiy-etimologik tahlil etilganda anglanadigan *yo‘q* va *kam* so‘zleri qiyoslansa, birinchisida ayni so‘zning nol darajada ekanligi seziladi. Arxaik so‘zlar muayyan davrning yozma uslubini ifodalashda yoki qahramonning nutqiy xarakteristikasini berishda ham lingvopoetik vosita sifatida ishlatiladi. She`riyatda nutqqa ko‘tarinki ruh bag‘ishlash maqsadida ishlatiladi.

Omon Matjon ijodida sayyod va sayd arxaizmlari ko‘p ishlatiladi.

Sen agar *sayyod* bo‘lib

Yoy agar bo‘lganda man.<sup>9</sup>

*Sayyod* so‘zi arabcha “ov”, “shikor”, “ov qilish” kabi ma`nolarini anglatadi. Eski o‘zbek tilida *sayd aylamak* “ov qilmoq”, “ilintirmoq”; *sayd qilmoq* “ovlamoq” ma`nolarini anglatadi. *Sayyod* so‘zi ham *sayd* asosida kelib chiqqan bo‘lib “ovchi” ma`nosini bildiradi. Yuqorida misradagi *sayyod* so‘zi o‘z ma`nosida qo‘llangan.

Umuman, Omon Matjon she`riyati tilida uchraydigan adabiy til nuqtai nazaridan arxaik hisoblangan bir qator leksik vositalar hozirgi kunda mavjud tushunchalarni ifodalashi bilan birga, davr ruhini aks ettirishi, ko‘tarinkilik, ulug‘vorlikni ta`minlash kabi maqsadlarda ijodkor tomonidan poetik aktivlashtirilgan til birliklaridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Учитувчи. – Т.: 1969.
2. O. Matjon. Turkiy adabiyot durdonalar. O‘zbekiston. – Т.: 2022.
3. Savodxon Izohli lug‘ati. [Savodxon@.gmail.com](mailto:Savodxon@.gmail.com). 2014.
4. O. Matjon. Maqsudam. Adabiyot. – Т.: 2021.
5. H. Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Talqin. – Т.: 2005.

<sup>8</sup> H. Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Talqin. – Т.: 2005.

<sup>9</sup> O. Matjon. Maqsudam. Adabiyot. – Т.: 2021.